

TANISHUV DARSLARI

Oliy ta'lim muassasasiga ilk qadamini qo'yayotgan yoshlar uchun institutning o'ziga xos tomonlarini o'zlashtirish, ustoz-shogird an'analarini teranroq anglab olish biroz vaqt talab etadi. Shuni inobatga olgan holda Xalq ijodiyoti fakultetida bilan 1-bosqich talabalarining uchrashuvi tashkil etildi.

Uchrashuv avvalida fakultet dekani Elyor Sodiqov talabalarni institut hamda fakultet rahbariyati, kafedra mudirlari va tyutorlar bilan batafsil tanishtirib, ularning funksional vazifalari, shuningdek, ularga murojaat qilish tartibi bilan batafsil tanishtirib o'tdi.

Shundan so'ng institut tarixi, bugungi salohiyati hamda «talabalarga ta'lim berayotgan taniqli ustozlar haqida, shuningdek, odob-axloq va ichki tartib-qoidalar, to'lov-shartnoma miqdori, to'lash tartibi, stipendiyalar, shuningdek, kredit modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish va "HEMIS" axborot tizimi to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Talabalar tomonidan berilgan barcha savollarga batafsil javob qaytarildi.

ILMIY SEMINAR

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzurida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy Kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar yig'ilishi o'tkazildi.

Kengashda dastlab Gavhar Nazarovaning 17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye ixtisosligi bo’yicha “O‘zbekiston zamonaviy hujjatli kinosining rivojlanish tendensiyalari evolyutsiyasi” mavzusidagi san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya san’atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat Tulyaxodjayeva ilmiy rahbarligida yozildi.

Seminarda ta’kidlanganidek, “Tadqiqot o‘zbek kinoshunoslik fanida ilmiy-nazariy ma’lumotlar ko‘lamini kengaytiradi, filmlar tahlili, kinohujjatchilar izlanishlari, hujjatli kino tarixi va nazariyasi fanlarini o‘qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tadqiqotdan kelajakda hujjatli kino tarixi va nazariyasini o‘rganayotgan soha mutaxassislari, kino ijodkorlar va talaba-yoshlar muhim manba sifatida foydalanishi mumkin”.

Shundan so‘ng seminarda Otajon Dostonovning 17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye ixtisosligi bo’yicha “Zamonaviy o‘zbek badiiy kinosida operatorlik san’atining yangi tamoyilari (2000-2020-yillar)” mavzusidagi san’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi muhokama qilindi.

Ushbu dissertatsiya san’atshunoslik fanlari doktori, professor Oltinoy Tojiboyeva ilmiy rahbarligida yozildi.

Seminarda ushbu dissertatsiya haqida fikr bildirilar ekan, “Tadqiqot –yaratilgan filmlar tahlili, sahnalashtiruvchi operatorlar izlanishlari, kino san’ati tarixi, kinooperatorlik mahorati, operatorlik ishi nazariyasi va fotokompozitsiya fanlarini o‘qitishni takomillashtirishga xizmat qilishi, shuningdek, undan O‘zbekiston badiiy filmlari bo’yicha olib boriladigan istiqboldagi tadqiqotlarda, darslik, o‘quv qo‘llanma va turli uslubiy ko‘rsatmalar yaratishda foydalanish mumkinligi ta’kidlandi.

Tadqiqotchilar seminar yakunida xulosalarini bayon qilar ekan, bugun bildirilgan fikr-mulohazalarni albatta, inobatga olishlarini hamda ular asosida ilmiy ishga yakuniy to'ldirishlarni kiritgan holda tez orada himoyaga chiqishlarini ma'lum qildi.

Seminar yakuniga ko'ra har ikkala tadqiqotchining dissertatsiyalari himoyaga tavsiya etildi.

1-bosqich talabalari institut bilan tanishtirildi



Kino, televideniye va radio san'ati fakulteti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi tasarrufidagi "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi", "Kino san'ati tanqidi va tahlili", "Teatrshunoslik", "San'at jurnalistikasi" ta'lim yo'nalishlari 1-kurs talabalari uchun tanishuv darslari o'tkazildi.

Fakultet dekani Anvar Qurbonov va “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrası mudiri Faxriddin Abduvohidov barcha yoshlarni avvalo, talaba bo’lganliklari bilan tabriklab, bu institutda o’zbek san’atining eng taniqli namoyondalari tahsil olganliklari, ayni paytda ularning ko’pchiligi ustoz sifatida yoshlarga san’at sir-asrorlaridan ta’lim berib kelayotgani, kelajakda bu yoshlar ham ularga munosib izdosh bo’lish uchun ustozlar bergan ta’limni mukammal o’zlashtirish barobarida, o’zlari ham tinimsiz izlanishlari lozimligini ta’kidlab o’tishdi.

So’ngra kurs murabbiylari talaba-yoshlarni fakultet va institut tarkibiy tuzilmasi, ta’lim yo’nalishlari, kafedralar tarkibi, shuningdek, institutning o’quv-ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyati bilan tanishtirdi.

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida yangi o’quv yiliga tayyorgarlik ishlari jadallik bilan davom etmoqda



→□ Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev institutda talabalarni turar joy bilan ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar hamda Mustaqilligimizning 33 yilligi va joriy o'quv yilida talabalikka tavsiya etilgan 1-bosqich talabalarini qutlash maqsadida "Biz bir-bo'lsak yagona xalqmiz, birlashsak Vatanmiz!" shiori ostida o'tkazilishi rejalashtirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirga tayyorgarlik jarayonini yana bir bor ko'zdan kechirdi.

→□ Rektor avvalo, talabalarni turar jory bilan ta'minlash markazlari (infokiosk) faoliyati bilan tanishdi. Jarayonda farzandini Talabalar turar joyiga joylashtirish uchun kelgan ota-onalar bilan suhbatlashdi. Suhbat davomida ota-onalar institutda kasbiy (ijodiy) imtihonlarning adolatli va shaffof tashkil etilganini alohida ta'kidlab, buning uchun minnatdorchilik bildirib o'tdi. Shuningdek, farzandlarini turar joy bilan ta'minlash ishlari va talabalar turar joylaridagi sharoitlar ham ularga ma'qul kelganini aytib o'tishdi.

→□ Shundan so'ng talabalar turar joylariga tashrish buyurib talabalar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi hamda talabalar bilan suhbat qurdi. Suhbat asnosida institut rektori bugun yurtimizda yoshlarga o'z iste'dodlarini namoyon qilishlari hamda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilganini, shu barobarda, institut xodimlari ham talabalar uchun barcha sharoitlarni

yaratib berish uchun tinimsiz izlanishda ekanligini aytib o'tdi.

→□ Shuningdek, yangi o'quv yilida talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini adolatli va shaffof tarzda olib borish, belgilangan reglamentga qat'iy amal qilish, birorta talaba e'tiborsiz qolmasligi, buning uchun bor imkoniyatni ishga solish kerakligi qayd etilib, barcha mas'ullarga ushbu masalani hal qilishda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda talaba-yoshlarning ta'lim olish bilan birga o'z ustida ishlashi va dam olishi uchun yetarli sharoitlarni yaratish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi.

→□ Ertaga bo'lib o'tishi rejalashtirilgan bayram tadbiri borasida fikr bildirar ekan Nodirbek Sayfullayev avvalo, ushbu bayram tadbirini talabalarning qiziqishlaridan kelib chiqib tashkil etish, birinchi bosqich talabalariga xush kayfiyat ulashish hamda talabalik baxtidan faxrlanish tuyg'usini singdirish birinchi darajali vazifa ekanligini ta'kidladi.

Talabalar xorijda tajriba almashmoqda



Ayni kunlarda Rossiya Federatsiyasining Verxnyaya Pishma shahrida Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti tashabbusi bilan _Teatr_Ural "Твое время" VIII xalqaro talabalar teatr laboratoriyasi bo'lib o'tmoqda. Unda yetakchi teatr institutlari – Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti, Rossiya davlat sahna san'ati instituti, Rossiya davlat teatr san'ati instituti, Boris Shukina nomidagi teatr instituti, Lugan davlat madaniyat va san'at akademiyasi, Yerevan davlat teatr va kino instituti va ilk marotaba O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ishtirok etmoqda.

Mazkur laboratoriyaning maqsadi "Aktyorlik san'ati", "Rejissyorlik san'ati", "Ssenografiya" ta'lim yo'nalishlari bitiruvchi kurs talabalari uchun professional start-up platformasini yaratish hamda do'stona, ijodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti nomidan "Teatr san'ati" fakulteti "Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati" kafedrasida professori Jahongir Mamatqosimov hamda mazkur fakultetning Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari Shavkat Bazarbayev, Ruslan Rustamov ishtirok etmoqda.

Laboratoriya talabiga ko'ra rejissyorlar, aktyorlar va ssenograflar o'zaro hamkorlikda hakamlar hay'ati tomonidan berilgan pyesa asosida bir hafta muddatda spektakl eskizini tayyorlashi lozim. Joriy yilda teatr laboratoriyasi "Muzei makonida – teatr" mavzusida noan'anaviy sahnada, ya'ni Verxnyaya Pishma shahrida joylashgan harbiy muzei kompleksida bo'lib o'tmoqda. Muzei kompleksida o'n besh mingdan ortiq harbiy texnikalar joylashgan bo'lib, mazkur harbiy texnikalar makonida spektakl eskizlari tayyorlanishi lozim.

Institut jamoasi uchun Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti "Dramaturgiya" yo'nalishi talabasi Shusharin Artyom tomonidan yozilgan "Do'stona tashrif" dramasi asosida spektakl eskizi tayyorlash vazifasi belgilangan. Mazkur jarayonga

ijodiy hamkor sifatida Rossiya davlat sahna san'ati instituti talabasi Arina Romanenko (ssenograf), Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti talabasi Krivoshyokov Dimitriy (rejissyor assistenti) va mazkur institutning "Drama aktyorligi san'ati" ta'lim yo'nalishi talabalari aktyor sifatida biriktirilgan.

Teatr laboratoriyasi davomida institut jamoasi Yekaterinburg davlat teatr san'ati instituti bilan tanishib bormoqda. Professor-o'qituvchilar mashg'ulotlarida ishtirok etmoqda. Shuningdek, teatr laboratoriyasi doirasida teatrlarga tashrif va shahar bo'ylab ekskursiyalar rejalashtirilgan.

Natijalar joriy yilning 14-sentabr kuni e'lon qilinadi.

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlar

0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xorijda istiqomat qilayotgan yosh vatandoshlarning oliy ta'lim muassasalariga kirishi uchun taqdim etilgan davlat grantlari doirasida tanlov e'lon qiladi.

Xorijdagi vatandoshlar uchun davlat grantlariga o'tkaziladigan tanlovlarda ishtirok etish uchun talabgorlarga quyidagi talablar belgilanadi:

– shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar asosida o'zi yoki ota-onasi yohud momosi: etnik, til va madaniy-tarixiy nuqtayi nazardan

o'zini o'zbek yoki qoraqalpoq sifatida identifikatsiya qilgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lishi;

– O'zbekiston hududida tug'ilib, istiqomat qilgan, biroq, hozirda xorijda doimiy istiqomat qilayotgan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs bo'lishi;

– xorijiy fuqaro sifatida Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatdagi bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridan biriga abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tib, suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilgan bo'lishi;

– 30 yoshga to'lmagan bo'lishi;

– o'zbek tilini bilishi lozim.

Arizalar joriy yilning 5-sentabridan 20-oktyabr kuniga qadar qabul qilinadi.

E'lon

2024-yil 5-sentabr kuni soat 14.00 da institutning mustaqil izlanuvchisi Mamatqosimov Jahongir Abirqulovichning 13.00.02 – ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (san'atshunoslik fanlari) ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan “Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida riojlantirish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining kafedra muhokamasi bo'lib o'tadi.

Ilmiy maslahatchi: Isakulova Nilufar Janikulovna – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika

fanlari doktori (DSc), dotsent

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.b.

Shodiyev Boltaboy Avazovich – san'atshunoslik fanlari doktori, dotsent

Manzil: O'zDSMI retorakt binosi 3-qavat, Muhammad Yusuf nomidagi auditoriya.

O'qishni qayta tiklash va ko'chirish maqsadida murojaat qilgan talabalarning arizalari ko'rib chiqildi

29-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish maqsadida murojaat qilgan talabalarning arizalari ko'rib chiqildi. Mazkur yig'ilishda institut rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda boshqa mas'ul shaxslardan iborat komissiya a'zolari ishtirok etdi.

Komissiya a'zolari tomonidan har bir talabaning hujjatlari individual ravishda, aniq belgilangan mezonlar asosida ko'rib chiqildi. Bunda ularning oldingi semestrlardagi baholari, intizomiy ko'rsatkichlari va o'qishni qayta tiklash yoki ko'chirish sabablari o'rganildi.

Yig'ilishda har bir talaba institutning ichki tartib-qoidalari va talablariga rioya etgan holda ta'lim olishda davom etishi mumkinligi ta'kidlandi.



